

Paleolit davri ustaxonalari va neolit davriga oid yangi makon topildi

O'zR FA Milliy arxeologiya markazi (MAM) va "JURU ENERGY CONSULTING" MChJ o'rtasida tuzilgan shartnomaga binoan MAM Samarqand arxeologiya instituti va Samarqand davlat universiteti mutaxassislaridan tarkib topgan guruh Qizilqum cho'lining janubiy-sharqida joylashgan Oyoqog'itma botig'i atrofida olib borayotgan tadqiqotlar davomida neolit davriga oid yangi neolit makonini topdi.





Oyoqog'itma-2 nomi bilan atalgan ushbu makonda 370 ta tosh buyumlar, mikrofauna, oxra va gulxan qoldiqlari aniqlandi. Shu bilan birga Qorasigir botig'i yaqinida paleolit davriga oid bir qator (7 ta punkt) yangi toshga ishlov berish ustaxonalari topildi. Ushbu ustaxonalardan kulrang va jigarrangli kremniylardan hamda slanetslardan ishlangan ko'plab ishlov berilgan tosh buyumlar aniqlanib, texnik-tipologik jihatdan

o'rta paleolit davriga oid deb hisoblanmoqda.

Hozirda ekspeditsiya tadqiqot ishlarini davom ettirmoqda va yana muhim natijalarni qo'lga kiritish rejalashtirilgan.

Ma'lumot o'rnida:

Qizilqum cho'li bundan 5-6 ming yillar muqaddam bepoyon vodiy bo'lib, insoniyat ajdodlari juda zich yashagan "ming ko'llar mamlakati" bo'lgan. Darhaqiqat, hududda o'nlab sersuv daryolar mavj urib oqqan, yuzlab yirik ko'llar va shunga mos fauna-flora mavjud bo'lgan. Neolit davriga oid dunyoga mashhur Kaltaminor madaniyati ushbu cho'l hududidan topib o'rganilgan. Jumladan, Oyoqog'itma botig'ining shimoliy chekkasidan Markaziy Osiyo neolitshunosligiga bebaho hissa bo'lib qo'shilgan shu nomli makon topib o'rganilgan. Oyoqog'itma makoni O'zbekiston-Polsha-Fransiya xalqaro arxeologik ekspeditsiyasi tomonidan jahon standartlari darajasida tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar kaltaminorliklarning nafaqat, ovchi va baliqchilar, balki tuya, qoramol va qo'y-echkilarni xonakilashtirgan mohir chorvadorlar bo'lganliklarini ilmiy jihatdan isbotlab berish barobarida, ushbu madaniyatning xronologik sanasini yana 900 ming yilga, ya'ni er.avv. 6300 ming yilliklargacha qadimiylashtirdi.